

**O'ZBEKISTONDA KONSOLIDATSIYALASHGAN BUDJET  
PARAMETRLARINING JORIY YIL UCHUN PROGNOZ  
KO'RSATKICHLARI**

*Berdiqulova Sevinch Toxir qizi  
Toshkent kimyo texnologiya instituti  
Yangiyer filiali stajyor o'qituvchisi  
Ismoilova Intizor Mansurbek qizi  
Toshkent kimyo texnologiya instituti  
Yangiyer filiali 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizning joriy yil uchun konsolidatsiyalashgan budjet ko'rsatkichlari, ya'ni davlat budjeti, DMJ budjetlari, TTJ mablag'lari, konsolidatsiyalashgan budgetning YaIM ga nisbatan foizlari, budget taqchilligi, davlat budjeti xarajatlarining 2024-yilda kutilayotgan ijrolari va daromadlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** DMJ, TTJ, konsolidatsiyalashgan budjet, budget taqchilligi, ishlab chiqarish infratuzilmasi, kapital qo'yilmalar.

**Kirish. Konsolidatsiyalashgan budjet** – budget tizimi budgetlarining barcha tushumlari va xarajatlarini hisobga olish va tahlil qilish maqsadida shakllantiriladigan budget. Konsolidatsiyalashgan budget tarkibiga Davlat budgeti, DMJ budgetlari, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari va O'zbekiston Respublikasi TTJ mablag'lari kiradi. Konsolidatsiyalashgan budget O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliya yili yakunlari bo'yicha tahliliy maqsadlar uchun hamda byudjet tizimi byudjetlarining (byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bundan mustasno) barcha tushumlari va harajatlarini hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini, ular o'rtaqidagi transferlarni hisobga olmagan holda hisobga olib borish uchun tuziladi.

2025–2027-yillar uchun konsolidatsiyalashgan budjet parametrlari prognozlari global iqtisodiy noaniqliklar va geosiyosiy ziddiyatlar tufayli tashqi xatarlar saqlanib qolinishi inobatga olinib ishlab chiqilgan. Bunda, hukumat tomonidan tashqi va ichki ta'sirlarga moslashuvchan fiskal siyosat olib borilishi maqsad qilingan bo'lib, buning natijasida 2027-yilga borib O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budgeti **daromadlari** 2022-yildagi YIMning 28,8 foizidan 26,6 foizigacha, **xarajatlari** 32,3 foizidan 29,6 foizigacha pasayishi prognoz qilingan.

**Konsolidatsiyalashgan budjet** — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (bundan buyon matnda Moliya vazirligi deb yuritiladi) tomonidan moliya yili yakunlari bo'yicha tahliliy maqsadlar uchun hamda budget tizimi budgetlarining barcha tushumlari va xarajatlarini hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va

taraqqiyot jamg'armasining (bundan buyon matnda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi deb yuritiladi) mablag'larini, ular o'rtasidagi transferlarni hisobga olmagan holda hisobga olib borish uchun tuziladigan budget. Konsolidatsiyalashgan budget tarkibi O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksiga asosan O'zbekiston Respublikasi davlat budgeti, davlat maqsadli jamg'armalarining budgetlari, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini o'z ichiga oladi.

**Asosiy qism.** O'zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Davlat byudjeti;
- Davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlari;
- O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari.

Byudjet siyosati – byudjet munosabatlarini tashkil etish tamoyillarining bajarilishini ta'minlash, davlat va jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalarni davlat byudjeti oqrali amalga oshirish usullari, chora-tadbirlari va maqsadli faoliyatlarini yig'indisidir.

Byudjet siyosati davlat va jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha bo'lishi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga qarab o'zgarib turishi mumkin. Byudjet siyosati :

- Byudjet daromadlari bo'yicha siyosat;
- Byudjet xarajatlari bo'yicha siyosat;
- Davlat krediti bo'yicha siyosat;
- Byudjet taqchillagini boshqarish bo'yicha siyosat;
- Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish siyosati kabilarning uyg'unligi asosida amalga oshiriladi.

#### **Konsolidatsiyalashgan budget jamlanma parametrlari, trln so'm :**

\_ Konsolidatsiyalashgan budget daromadlari 2023-yil 321.9 trln so'm bo'lган , 2024-yil 377.7 trln so'm bo'lishi kutilmoqda va 2027-yilga borib 565.0 trln so'm bo'lishi rejalashtirilmoqda;

\_ Konsolidatsiyalashgan budget xarajatlari esa 2023-yil 381.0 trln so'm, 2024-yil 434.8 trln so'm bo'lishi kutilmoqda va 2027-yilga borib 629.1 trln so'm bo'lishi prognoz qilinmoqda;


\_ DMJ ga transferlar 2023-yil 30.7 trln so'm bo'lган, 2024-yil 34.0 trln so'm bo'lishi kutilmoqda va 2027-yilga borib 53.5 trln so'm bo'lishi prognoz qilinmoqda;

\_ Konsolidatsiyalashgan budget taqchilligi 2023-yilda -59.2 trln, 2024-yil -57.2 trln bo'lishi kutilmoqda va 2027-yilga borib -64.1 trln so'm bo'lishi prognoz qilinmoqda.

#### **Konsolidatsiyalashgan budget jamlanma parametrlari, YIMga nisbatan foizda:**

- Konsolidotsiyalashgan budjet daromadlari 2023-yil 27.0 %, 2024-yil 26.7 % bo'lishi kutilmoqda va 2027-yilga borib 26.6 % bo'lishi prognoz qilinmoqda;
- Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari esa 2023-yil 32.0 %, 2024-yil 30.8 % bo'lishi kutilmoqda va 2027-yilga borib 29.6 % bo'lishi prognoz qilinmoqda;
- DMJ ga transferlar 2023-yil 2.6 %, 2024-yil 2.4 % bo'lishi kutilmoqda va 2027-yilga borib 2.5 % bo'lishi prognoz qilinmoqda;
- Konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi 2023-yil -5%, 2024-yil -4% bo'lishi kutilmoqda va 2027-yilga borib -3% bo'lishi prognoz qilinmoqda.

### **Yillar kesimida budjet taqchilligi, YIMga nisbatan foizda**




*IMF/Fiscal monitor/Fiscal policy in the Great Election Year. 2024 apr.*

#### **Davlat budjeti xarajatlarining 2024-yilgi kutilayotgan ijrosi:**

- Ijtimoiy soha bo'yicha : 2023-yil 137.2 trln, 2024-yilda esa 154.4 trln so'm;
- Iqtisodiy xarajatlari : 2023-yil 42.2 trln, 2024-yilda esa 40.5 trln so'm;
- Rivojlantirish dasturlari : 2023-yil 33.6 trln va 2024-yil 32.4 trln so'm;
- Davlat boshqaruvi, hokimiyati, adliya, prokratura va sud organlari : 2023-yil 15.9 trln, 2024-yil 16.8 trln so'm;
- Zaxira jamg'armalari : 2023-yil 1.7, 2024-yil 2.1 trln so'm;
- Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha foiz to'lovlari : 2023-yil 8.2 trln, 2024-yil 16.4 trln so'm bo'lishi kutilmoqda.

2024-yilda Davlat budjeti daromadlari, 2023-yilgi ko'rsatkichlarga nisbatan 39,3 trln so'mga yoki 17 foizga foizga o'sib, 271 trln so'm bo'lishi hamda yil boshidagi prognoz ko'rsatkichlari bajarilishi kutilmoqda. Bunda davlat budjeti daromadlarining yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i 19,2 ni tashkil qilishi kutilmoqda.

#### **2023-2024 yillarda Davlat budjeti daromadlari tuzilmasi, trln so'm**



**O‘zbekiston Respublikasi konsolidatsoyalashgan budjetining 2024-yil 9 oylik ijrosi.** Hisobot davrida konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 272,1 trln so‘mni, xarajatlari esa 307,9 trln so‘mni tashkil etgan. Taqchillik – 35,8 trln so‘m yoki YaIMning 2,5 foizi. 2024 yil uchun konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi 52,6 trln so‘m miqdorida tasdiqlangan. 2024-yil uchun konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi 52,6 trln so‘m miqdorida tasdiqlangan.

Yanvar-sentabr oylarida davlat budjeti daromadlari 193,6 trln so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 19,1 foizga o‘sgan. Daromadlar quyidagi manbalar hisobidan shakllangan:

- **bevosita soliqlar – 64,1 trln so‘m;**
- **bilvosita soliqlar – 62,3 trln so‘m;**
- **resurs to‘lovleri va mulk solig‘i – 26,5 trln so‘m;**
- **boshqa daromadlar – 40,7 trln so‘m.**

Hisobot davrida davlat budjeti xarajatlari 219,3 trln so‘m bo‘lgan va o‘tgan yilning 9 oyiga nisbatan xarajatlar 8,9 foizga oshgan. Budjet xarajatlarining iqtisodiy tasnif bo‘yicha ijrosi quyidagicha bo‘lgan:

- **ish haqi – 71 trln so‘m;**
- **kapital qo‘yilmalar – 9,4 trln so‘m;**
- **asosiy vositalar xarid qilish bo‘yicha xarajatlar – 3,3 trln so‘m;**
- **subsidiyalar – 19,8 trln so‘m;**
- **ijtimoiy nafaqalar – 13,6 trln so‘m;**
- **transfertlar – 23,4 trln so‘m;**
- **ijtimoiy ajratmalar – 17,7 trln so‘m;**
- **tovar va xizmatlar xarid qilish – 18 trln so‘m;**
- **foiz to‘lovleri – 9,6 trln so‘m.**

2024 yilning 9 oyida mahalliy budjet daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi salbiy farq 19,9 trln so‘mni tashkil etgan.

Hududlar kesimida eng katta defitsit Andijon viloyatida qayd etilgan. Viloyatda mahalliy budjet daromadlari 2,72 trln so‘m, xarajatlari esa 4,84 trn so‘m, defitsit 2,12 trln so‘m bo‘lgan. Keyingi eng yomon ko‘rsatkichlar Farg‘ona (taqchillik – 1,96 trln so‘m) va Namangan (taqchillik – 1,83 trln so‘m) viloyatlarida kuzatilgan.

2024 yilning uch choragida davlat budgetidan ajratiladigan subsidiyalar miqdori 19 trln 816 mlrd so‘mni tashkil qilgan.

Yanvar-sentabr oylarida subsidiya mablag‘larining katta qismi quyidagi maqsadlarda ishlataligan:

- ichki bozorda tabiiy gazni ulgurji sotib olish va sotish o‘rtasidagi zararlarni qoplash – 9,5 trln so‘m;
- issiqlik ta’minoti korxonalari zararini qoplash xarajatlari – 2,5 trln so‘m;

- nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalariga subsidiyalar – 2,44 trln so‘m;
- aholi tomonidan uy-joy sotib olish uchun subsidiyalar – 914 mlrd so‘m;
- jamoat transportida yo‘lovchilar tashish uchun subsidiyalar – 798 mlrd so‘m;
- “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJning mablag‘larini shakllantirish – 614 mlrd so‘m;
- geologiya-qidiruv ishlari uchun ajratilgan subsidiyalar – 589 mlrd so‘m;
- qishloq xo‘jaligi jamg‘armasiga subsidiyalar – 467 mlrd so‘m;
- elektropoyezdlarda yo‘lovchilar tashishni subsidiyalashga – 292 mlrd so‘m.

2024-yilgi konsolidatsiyalashgan budget taqchilligi chegarasi 3 foiz o‘rniga 4 foiz etib tasdiqlandi (52,5 trln so‘m). Davlat qarzi bo‘yicha chegara ham 5 mlrd dollargacha oshdi, unga xizmat ko‘rsatish yanada qimmatlashadi. YAIM o‘sishi 5,6–5,8 foiz, inflyatsiya 8–10 foiz darajasida prognoz qilinmoqda.

Konsolidatsiyalashgan budget taqchilligini (davlat budgeti, davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlari, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg‘armalari hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larini o‘z ichiga oladi). 2024-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5,5 foizdan 4 foizgacha, 2025–2026-yillarda esa 3 foizgacha qisqartirish rejalashtirilmoqda.

2024-yilda limit 5 mlrd dollar – byudjetni qo’llab-quvvatlash va investitsiya loyihalari yo‘nalishida har biri uchun 2.5 mlrd dollardan etib belgilandi. Davlat qarz portfelini diversifikatsiya qilish va valyuta riskslarini kamaytirish maqsadida O‘zbekiston nomidan muomalaga chiqarilgan davlat qimmatli qog’ozlarining maksimal sof hajmi 2024-yil uchun 25 trln so‘m ( 2023-yil uchun – 17 trln so‘m edi ) miqdorda belgilandi.

2024-yil uchun byudjetlararo transfertlardan tashqari , konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari (davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larini o‘z ichiga oladi) 375.03 trln so‘m , xarajatlari esa 427.64 trln so‘mni tashkil etishi kutilmoqda. Shu bilan birga, kutilayotgan daromadlar summasi 2024-yil uchun avvalgi prognozga nisbatan 21.33 trln so‘m, xarajatlar summasi esa 40.443 trln so‘mga ko‘p.

Budgetning o‘zining daromadlari 270,4 trln so‘mni, xarajatlari esa 280,7 trln so‘mni tashkil etadi. Davlat maqsadli jamg‘armalarining daromadlari 65,2 trln so‘m, xarajatlari 96,1 trln so‘m miqdorida rejalashtirilgan. Shu bilan birga, mazkur jamg‘armalarga respublika budgetidan 32,1 trln so‘m transfertlar yo‘naltirish ko‘zda tutilgan. Pensiya jamg‘armasining budgetdan tashqari daromadlari 46,8 trln so‘m, xarajatlari esa 63,1 trln so‘m bo‘lishi kutilmoqda. Davlat dasturlari bo‘yicha tashqi qarzlar hisobidan rejalashtirilgan xarajatlar 1,5 barobarga — 11,7 trln so‘mgacha (2023-yilda — 7,8 trln so‘m edi) oshadi.

**Xulosa.** Konsolidatsiyalashgan byudjet davlat moliya tizimining barcha darajalaridagi daromadlar va xarajatlarni birlashtirgan holda, mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. U ijtimoiy, iqtisodiy va infratuzilmaviy rivojlanishning asosiy moliyaviy manbasi hisoblanadi.

**1. Davlat moliyasini boshqarish:**

- Konsolidatsiyalashgan byudjet davlat daromadlari va xarajatlarini samarali rejalshtirish va boshqarishga imkon beradi.
- U resurslarni ijtimoiy sohalarga va iqtisodiy rivojlanishga yo'naltirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

**2. Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash:**

- Byudjetning ijtimoiy yo'naltirilgan xarajatlari (ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va boshqalar) aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.
- Muhim ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish orqali tenglikni ta'minlaydi.

**3. Xarajatlarning shaffofligi:**

- Konsolidatsiyalashgan byudjet orqali davlat xarajatlari va daromadlarining shaffofligini ta'minlash mumkin.
- Bu davlat moliyasi ustidan nazoratni kuchaytiradi va fuqarolarning ishonchini oshiradi.

**4. Investitsiyalarni rag'batlantirish:**

- Byudjet resurslari orqali infratuzilmani rivojlantirish va biznesni qo'llab-quvvatlash mamlakat iqtisodiyoti uchun qo'shimcha investitsiyalarni jalg qiladi.
- Xususiy sektor va davlat o'rtafigi hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

**5. Iqtisodiy barqarorlik:**

- Konsolidatsiyalashgan byudjet davlatning umumiyligi iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda asosiy vosita hisoblanadi.
- Byudjet taqchilligi va davlat qarzini boshqarish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

**6. Regional rivojlanish:**

- Byudjet mablag'larini hududiy rivojlanishga yo'naltirish orqali iqtisodiy tengsizliklarni kamaytiradi va barcha hududlarning rivojlanishini ta'minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Davlat\_byudjeti\_Nurmuxamedova\_2018\_[@iqtisodchi\_kutubxonasi].pdf
2. Budgetnoma 2025-yil uchun.pdf
3. <https://kun.uz/news/2024/11/26/davlat-budgetining-9-oylik-ijrosi-defitsit-salkam-36-trln-som>
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/12/26/budget/#:~:text=2024-yilgi%20konsolidatsiyalashgan%20budget%20taqchilligi,10%20foiz%20darajasi%20prognoz%20qilinmoqda>